



UDK:159.9

Nurbek ISKANDAROV,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: iskandarovn06@gmail.com

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti dotsenti D.Uralov taqrizi asosida

EMOTSIONAL INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING PEDAGOG SHAXSIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimi pedagog kadrlarning nafaqat bilim darajasi va kasbiy ko'nikmalarini, balki ularning emotsional barqarorligi, o'zini anglash qobiliyati, shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil eta olishini ham dolzarb mezon sifatida ko'radi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo'lajak pedagog shaxsining emotsional intellekti ularning motivatsion sohasini shakllantirish va boshqarishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Pedagog shaxsining emotsional intellekti yuqori bo'lsa, u o'z motivatsiyasini boshqarish, qiyinchiliklarga bardoshli bo'lish, ijobiy ruhda faoliyat yuritish, talabalarda ham motivatsiyani uyg'otish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Kalit so'zlar: Hissiy-irodaviy soha, akmeologiya, stress, ixtilofli, individual, hissiy intellekt, konsepsiya, kasbiy identifikatsiya, kognitiv funktsiya, aqliy operatsiya.

ПОНЯТИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЕГО РОЛЬ В ЛИЧНОСТИ УЧИТЕЛЯ

Аннотация

В данной статье рассматривается современная система образования, которая сегодня рассматривает в качестве актуального критерия не только уровень знаний и профессиональных навыков педагогических кадров, но и их эмоциональную устойчивость, способность к самопознанию и способность эффективно организовывать межличностные отношения. С этой точки зрения эмоциональный интеллект будущей педагогической личности является важным фактором формирования и управления её мотивационной сферой. Высокий уровень эмоционального интеллекта педагогической личности обеспечивает ей способность управлять собственной мотивацией, быть устойчивой к трудностям, работать в позитивном ключе, а также мотивировать обучающихся.

Ключевые слова: Эмоционально-волевая сфера, акмеология, стресс, личность, эмоциональный интеллект, концепт, профессиональная идентификация, когнитивная функция, мыслительная операция.

THE CONCEPT OF EMOTIONAL INTELLIGENCE AND ITS ROLE IN THE PERSON OF A TEACHER

Annotation

In this article, the modern education system today considers not only the level of knowledge and professional skills of pedagogical personnel as a relevant criterion, but also their emotional stability, ability to understand themselves, and the ability to effectively organize interpersonal relationships. From this point of view, the emotional intelligence of a future pedagogical personality is an important factor in the formation and management of their motivational sphere. If the emotional intelligence of a pedagogical personality is high, he will have the ability to manage his own motivation, be resilient to difficulties, work in a positive spirit, and also inspire motivation in students.

Key words: Emotional-volitional sphere, acmeology, stress, individual, emotional intelligence, concept, professional identification, cognitive function, mental operation.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi pedagog kadrlarning nafaqat bilim darajasi va kasbiy ko'nikmalarini, balki ularning emotsional barqarorligi, o'zini anglash qobiliyati, shaxslararo munosabatlarni samarali tashkil eta olishini ham dolzarb mezon sifatida ko'radi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bo'lajak pedagog shaxsining emotsional intellekti ularning motivatsion sohasini shakllantirish va boshqarishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Pedagog shaxsining emotsional intellekti yuqori bo'lsa, u o'z motivatsiyasini boshqarish, qiyinchiliklarga bardoshli bo'lish, ijobiy ruhda faoliyat yuritish, talabalarda ham motivatsiyani uyg'otish qobiliyatiga ega bo'ladi.

Tadqiqotning dolzarbligi. Bu mavzuning zamonaviy ta'lim tizimida pedagogik kadrlarga qo'yilayotgan talablar asosida ko'payib borayotgan ehtiyojlar bilan bog'liqdir.

Tadqiqotning maqsadi. Bo'lajak pedagog shaxsining emotsional intellekt darajasini aniqlash va uning motivatsion sohasini boshqaruv omili sifatidagi rolini ilmiy asoslash.

Emotsional intellekt tushunchasining nazariy asoslari: Emotsional intellekt (emotsional intellekt) bu insonning o'z va boshqalarning emotsiyalarini anglash, ularga munosabatda bo'lish, ularni boshqarish va ijtimoiy munosabatlarni muvaffaqiyatli olib borish qobiliyatidir. Ushbu tushuncha ilk bor 1990-yillarda amerikalik olimlar Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan ilgari surilgan va keyinchalik Deniel Goulman tomonidan keng ommalashtirilgan.

Salovey va Mayer (1990) emotsional intellektni quyidagi komponentlardan tashkil topgan deb hisoblashadi:

Emotsiyalarni aniqlash va anglash-o'z va boshqalarning hissiyotlarini tan olish;

Emotsiyalarni boshqarish-salbiy va ijobiy emotsiyalarni muvozanatda ushlash;

O'zini motivinga yo'naltirish-maqсад sari harakat qilishda emotsional barqarorlikni saqlash;

Empatiya-boshqalar his-tuyg'ulariga hamdard bo'lish; Ijtimoiy ko'nikmalar-ijtimoiy munosabatlarni boshqarish.

Deniel Goulman (1995) esa emotsional intellektni inson muvaffaqiyatining asosiy omili sifatida ko'radi va uni quyidagicha tasniflaydi:

O'zini anglash (Self-awareness)—shaxsiy hissiyotlar, kuchli va kuchsiz tomonlarni tushunish;

O'zini boshqarish (Self-regulation)—impulslar, stress va emotsiyalarni boshqarish;

Motivatsiya (Motivation)—ichki rag'bat, qat'iyat va optimizm;

Empatiya (Empathy)—boshqalar hissiyotini sezish va tushunish;

Ijtimoiy ko'nikmalar (Social skills)—samarali muloqot va rahbarlik qilish qobiliyati.

Emotsional intellekt, shunchaki hissiyotlarni tan olish emas, balki ularni faoliyatga yo'naltira olish qobiliyatidir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab inson shaxsini har tomonlama tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar ko'paydi. Inson faqat aqliy salohiyat emas, balki hissiy olami orqali ham o'zini namoyon etishni ko'rsatib berdi. Shunday qilib, "emotsional intellekt" tushunchasi psixologiyada alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllandi.

Emotsional intellekt atamasi ilk bor amerikalik psixologlar Piter Salovey va Jon Mayer tomonidan 1990-yilda ta'riflangan. Ular emotsional intellektni o'z va boshqalarning emotsiyalarini aniqlash, ularni tushunish, ularga asoslangan qarorlar qabul qilish va hissiyotlarni boshqarish qobiliyati deb izohlaydilar. Bu tushuncha insonning faqat aqliy (IQ) emas, balki hissiy-ijtimoiy qobiliyatlarini ham qamrab oladi.

Deniel Goulman esa (1995) emotsional intellektni ommaboplashtirgan mutaxassis bo'lib, uning fikricha, inson muvaffaqiyati 20% intellektual ko'rsatkichlarga, 80% esa emotsional intellektga bog'liq.

Goulman modeliga ko'ra emotsional intellekt quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- O'zini anglash inson o'z emotsiyalari, ichki holatini to'g'ri idrok etadi;

- O'zini boshqarish impulslar, g'azab, tushkunlik va boshqa salbiy hislarni nazorat qilish;

- Motivatsiya shaxsiy maqsad sari intilish, qiyinchiliklarga qaramay davom ettirish;

- Empatiya boshqa insonlarning his tuyg'ularini sezish va inobatga olish;

- Ijtimoiy ko'nikmalar samarali muloqot, murosaga kelish, jamoada ishlash.

Bu komponentlar birgalikda insonning shaxsiy va kasbiy hayotida muvaffaqiyatga erishishida muhim rol o'ynaydi.

Bo'lajak pedagoglar uchun emotsional intellektning ahamiyati: Bo'lajak pedagoglar bu pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar bo'lib, ular kelajakda yosh avlod ta'lim tarbiyasiga mas'ul bo'ladilar. Shuning uchun ularning emotsional intellekt darajasini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biridir.

Bo'lajak pedagoglar quyidagi sabablarga ko'ra emotsional intellektga ehtiyoj sezadilar:

1. Kasbiy tayyorgarlik jarayonida: Pedagogik amaliyot davomida talaba ko'plab stressli, ijtimoiy faol vaziyatlarga tushadi. Talaba o'zini anglay olish, salbiy hislarni boshqara olish orqali ijobiy ruhda harakat qilishga o'rganadi.

2. Motivatsiyani boshqarishda: Emotsional intellekt motivatsion sohani boshqarishda asosiy rol o'ynaydi. O'z his-tuyg'ularini boshqara oladigan pedagog talabalarni ham rag'batlantira oladi, ularning psixologik holatini hisobga olgan holda darsni olib boradi.

3. Pedagogik empatiya: Bo'lajak o'qituvchi o'quvchining emotsional holatini sezmasa, uni to'g'ri

yo'naltira olmaydi. Empatiya orqali pedagog o'quvchining ehtiyojlariga mos individual yondashuvni tanlaydi.

4. Shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda: Emotsional intellekt shaxsiy barkamollik, o'ziga ishonch, jamoada ishlash qobiliyatini oshiradi. Bu esa bo'lajak pedagogni ijtimoiy barqaror va psixologik jihatdan tayyor shaxs sifatida shakllantiradi.

5. Zamonaviy talablar: Bugungi kunda o'qituvchidan nafaqat bilimi, balki ruhiy barqarorligi, madaniyati, sabr-toqati, o'zini tuta olishi talab etiladi. Bularning barchasi emotsional intellekt bilan bog'liq.

Zamonaviy psixologiyada emotsional intellekt insonning kasbiy faoliyatida muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, insonlar bilan bevosita muloqot qiladigan kasb egalari o'qituvchilar, shifokorlar, menejerlar uchun bu ko'nikmalar zarur hisoblanadi. Pedagogik faoliyatda emotsional intellekt:

- dars jarayonida hissiy muhitni yaratish,
- o'quvchilarning ruhiy holatini anglash,
- konfliktli vaziyatlarda yechim topish,
- pedagogik empatiya ko'rsatish orqali shaxslararo munosabatlarni ijobiy yo'naltirish imkonini beradi.

O'qituvchi o'z his-tuyg'ularini anglay olmasa, boshqalarni tushunolmaydi. Bu esa ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Aksincha, yuqori darajadagi emotsional intellekt o'qituvchiga quyidagi afzalliklarni beradi:

- stressli vaziyatlarda muvozanatni saqlash;
- dars jarayonini hissiy jihatdan jonli tashkil etish;
- o'quvchilarda motivatsiyani uyg'otish;
- ijtimoiy munosabatlarni uyg'un yuritish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, emotsional intellekt yuqori bo'lgan pedagoglar kasbiy yonish (burnout) darajasiga kam uchraydi, darsga tayyorgarlikni ishtiyoq bilan bajaradi va o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashishga qodir bo'ladi.

Motivatsiya tushunchasi va uning nazariy asoslari: Motivatsiya bu inson faoliyatini faollashtiruvchi ichki harakatlantiruvchi kuchdir. Psixologiyada motivatsiya shaxsning ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsad va intilishlari bilan bog'liq holda aniqlanadi. U o'z ichiga turli omillarni oladi: fiziologik, psixologik, ijtimoiy va madaniy.

Psixologiyada motivatsiya bo'yicha bir necha asosiy nazariyalar mavjud:

A. Maslou ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi: inson ehtiyojlarini besh bosqichli iyerarxiya sifatida ko'radi (fiziologik, xavfsizlik, ijtimoiy, hurmat, o'zini namoyon qilish);

F. Gertsbergning ikki omilli nazariyasi: motivatorlar (kasbiy muvaffaqiyat, tan olinishi, mas'uliyat) va gigiyenik omillar (maosh, sharoit) orqali izohlaydi;

Makklellandning o'zlashtirish nazariyasi: kuchga intilish, yutuqqa intilish va aloqadorlik ehtiyojlariga urg'u beradi;

Dechiy va Rayan tomonidan ishlab chiqilgan o'zini o'zi belgilash nazariyasi (Self-Determination Theory): ichki va tashqi motivatsiyani farqlaydi hamda ichki motivatsiyani ustuvor deb hisoblaydi;

V. Vrumning kutish nazariyasi (Expectancy Theory): insonlar ma'lum natijalarni kutib, intilishadi — ya'ni, faoliyat va mukofot o'rtasidagi bog'liqlik motivatsiyani shakllantiradi;

B.F. Skinnerning xulq-atvoristik yondashuvi: mukofot va jazoga asoslangan motivatsiyani o'rganadi. Unga ko'ra, harakat mukofot bilan mustahkamlanadi, jazoga esa kamayadi.

Ushbu nazariyalar asosida pedagog shaxsining motivatsion portretini yaratish, motivatsiyani kuchaytirish mexanizmlarini aniqlash, shuningdek, pedagogik jarayonni samarali tashkil etish mumkin.

Pedagog shaxsining motivatsion tuzilmasi Pedagog shaxsi o'z faoliyatida yuqori darajadagi mas'uliyat,

tashabbuskorlik, sabr-toqat va barqarorlikni namoyon etishi kerak. Bu xususiyatlarning shakllanishida motivatsiya markaziy o'rinni egallaydi. Pedagogik faoliyatda motivatsiya — bu darsga tayyorgarlik, o'quvchilar bilan munosabat, kasbiy faoliyatga ijobiy yondashuv va yangilikka ochiqlik kabi ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi.

Pedagog shaxsining motivatsion tuzilmasi quyidagi asosiy elementlardan iborat:

Ichki motivatsiya: kasbga bo'lgan qiziqish, o'zini oqlash istagi, ijtimoiy ahamiyatni anglash, shaxsiy o'sishga bo'lgan intilish;

Tashqi motivatsiya: maosh, ijtimoiy maqom, mukofot, boshqalar tomonidan baholanish;

Barqarorlik va mustahkamlik: pedagog kasbi davomiy psixologik tayyorgarlikni, zo'riqlashlarga bardoshlilikni talab etadi;

Axloqiy motivlar: vijdon, shaxsiy qadriyatlar, kasbiy etikaga sadoqat, bolalarga mehr.

Ushbu tuzilmaning kuchli bo'lishi pedagog shaxsining kasbiy muvaffaqiyati, ta'lim jarayonining sifati va o'quvchilar bilan ijobiy emotsional aloqalarini ta'minlaydi. Motivatsiyani anglash orqali ta'lim sifati oshadi, o'quvchi-shaxs bilan ishlashda individual yondashuv kuchayadi. Bo'lajak pedagoglarda motivatsiyaning shakllanishi va unga ta'sir etuvchi omillar

Bo'lajak pedagoglarda motivatsiyaning shakllanish jarayoni ko'p bosqichli, dinamik va murakkabdir. Bu jarayonga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

Shaxsiy omillar: qiziqishlar, ijtimoiy ehtiyojlar, o'zini anglash, emotsional barqarorlik, shaxsiy maqsadlar;

Tashkiliy omillar: oliy ta'lim muassasasidagi o'quv muhit, o'qituvchilar bilan munosabatlar, metodik ta'minot, o'quv dasturlari sifati;

Ijtimoiy omillar: kasb tanlashdagi ijtimoiy bosim, ota-onaning kutganlari, jamiyatdagi o'qituvchi nufuziga bo'lgan munosabat;

Madaniy va tarixiy kontekst: o'qituvchi kasbining qadriyat sifatidagi qabul qilinishi, an'analar;

Psixologik xizmatlar va maslahatlar: talabalarning kasbiy yo'nalishini mustahkamlashda professional yordam, stressga bardoshlilikni oshirish mashg'ulotlari.

Bo'lajak pedagoglarda yuqori motivatsiya quyidagi natijalarga olib keladi:

darslarga ongli yondashuv;

mustaqil bilim olishga intilish;

innovatsion g'oyalarga ochiqlik;

kasbiy faoliyatga sadoqat;

emotsional intellekt darajasining oshishi.

Past motivatsiya esa quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

o'zini past baholash;

kasbiy befarqlik;

stressga bardosh berolmaslik;

ijtimoiy ajralish;

tez-tez yo'nalish o'zgartirishga intilish.

Shuning uchun pedagogika oliygohlarida motivatsion muhit yaratish, kasbga bo'lgan muhabbatni uyg'otish, ilg'or psixologik texnologiyalar asosida motivatsiyani boshqarish amaliyotlari joriy etilishi zarur.

ADABIYOTLAR

1. Саловой П., Майер Дж. Эмоциональный интеллект. Imagination, Cognition and Personality. – 1990. – Т. 9, № 3. – С.185–211.
2. Големан Д. Эмоциональный интеллект: Почему он может значить больше, чем IQ. – М.: Олимп-Бизнес, 2006. – 464 с.
3. Bar-On R. The Bar-On model of emotional-social intelligence (ESI). Psicothema. – 2006. – №18 (Suppl.). – P. 13–25.
4. Gardner H. Intelligence Reframed: Multiple Intelligences for the 21st Century. New York: Basic Books, 1999. 300p.
5. Reshetova Z.A. Motivatsiya v sisteme podgotovki pedagoga. Moskva: Pedagogika, 2003. 168s.
6. Gavrilova T.G., Kolesnikova E.A. Emotsional'nyy intellekt pedagoga i ego vliyanie na obrazovatel'nuyu sredu. Pedagogika i psikhologiya. 2020. № 3. S. 77–81.
7. O'razbayeva D. Psixologiya ta'lim yo'nalishi talabalari emotsional intellektning psixologik xususiyatlari. Yosh olim tadqiqotlari. 2024. № 2. B.117–120.
8. Sagdiyeva N. Bo'lajak pedagog-psixologlar ijtimoiy-psixologik kompetentligining rivojlanish xususiyatlari. Samarqand: 2023. 1306.
9. "Bo'lajak o'qituvchilarda emotsional intellekt rivojlanishining psixologik jihatlari." Termiz Davlat Pedagogika Instituti, 2022. – 120 b.
10. UNESCO. Emotional Intelligence: Why It Matters. 2022. – <https://unesco.org/emotional-intelligence>